

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

tanlash ular ishlatiladigan ob'ektlarning maqsadi, turi konstruksiyasiga, mustahkamligi va chidamliligiga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. ГОСТ 380-88*. Сталь углеродистая обыкновенного качества марки. Минск 1994.
2. ШНК 2.03.14-18. Композит полимер арматурили бетон конструкциялар.
3. QMQ 2.06.08-97. Gidrotexnika inshootlari. Beton va temir-beton tuzilmalari. O'zb.Respublikasi. Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. T., 1998.
4. QMQ. 2.06.04-97. Gidrotexnika inshootlariga bo'ladigan yuk va ta'sirlar (to'lqin, muz va kemalar orqali) T., 1998.
5. O'zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida» gi qonuni, - T., 1999

O'ZBEKISTONDA QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI.

Masharipov Shuhrat Ro'zmatovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

“Texnika” fakulteti “Qurilish” kafedrası o'qituvchisi

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning turli tarmoqlari qatorida qurilish materiallari sanoati ham jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning natijasi bo'lib, qurilish materiallari sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning “drayver” tarmoqlaridan biriga aylanmoqda.

Qurilish sohasida mahsulotlar hajmini ko'paytirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar mamlakatimizning sanoat salohiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.05.2019 yildagi PQ-4335-son “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori bu sohada kata turtki bo'ldi. Ayniqsa, energiya tejankor, innovatsion va ekologik

xavfsiz qurilish materiallariga bo'lgan talabning ortib borishi mazkur tarmoqni modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga chiqardi.

2016–2025 yillarda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar sezilarli natijalar berdi. Agar 2016-yilda atigi 6,8 trillion so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 50 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Bu esa qisqa davr ichida 7,3 barobarga o'sishni anglatadi.

Qurilish materiallari nafaqat ichki bozor uchun, balki tashqi bozor uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda atigi 55,3 mln dollarlik eksport amalga oshirilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 257 mln dollarga yetdi. 2025-yilga borib esa eksport hajmining 1,2 mlrd dollarga chiqishi rejalashtirilmoqda.

O'sishning asosiy omillari quyidagilardan iborat: -yangi ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilishi; -mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish; -davlat tomonidan tarmoqni qo'llab-quvvatlash dasturlarining joriy qilinishi; -investitsiyalar hajmining sezilarli oshishi. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi O'zbekiston sanoatining eng barqaror va istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallari nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham yuqori talabga ega bo'lib bormoqda. Masalan, gipsokarton, issiqlik saqlovchi shisha momig'i, ohak, keramik plitkalar va gips kabi mahsulotlar eksporti yildan-yilga ortmoqda. 2016-yilda 55,3 mln dollarlik mahsulot eksport qilingan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 257 mln dollarga yetib, 4,6 barobarga oshdi. 2025-yilga borib eksport hajmini 1,2 mlrd dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Eksport geografiyasi ham kengayib bormoqda. An'anaviy bozorlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Afg'onistondan tashqari, keyingi yillarda Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya va Ukraina kabi davlatlarga ham qurilish materiallari yetkazib berilmoqda.

Import hajmlari esa bosqichma-bosqich kamaymoqda. Masalan, 2020-yilda 467,6 mln dollarlik qurilish materiallari import qilingan bo'lib, bu 2019-yilga

nisbatan 14,2 foizga kamdir. Bu esa mahalliyashtirish dasturlarining samaradorligini ko'rsatadi. Prezidentning 2022-yil 9-iyundagi farmoniga muvofiq, qurilish materiallari tarmog'ini boshqarishning yangi tizimi joriy etildi. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi huzurida maxsus kengash tashkil qilindi va hududlarda Qurilish materiallarini rivojlantirish markazlari ochildi. Shuningdek, 24 ta tuman qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi, bu hududlarni rivojlantirish uchun 400 mlrd so'm mablag' ajratildi. Geologik-qidiruv ishlariga esa 100 mlrd so'm yo'naltirildi. 2026-yilga qadar quyidagi maqsadlarga erishish belgilangan: -ishlab chiqarish hajmini 42,3 trln so'mgacha yetkazish; -yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini 53 foizga yetkazish; -qurilish materiallari eksportini 505 mln dollarga oshirish; - soha rivojiga 2,76 mlrd dollarlik investitsiyalar jalb qilish. "BCG" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan strategiyada qurilish materiallari tarmog'ining 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish konsepsiyasi belgilab berilgan. Unda yangi turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarishni o'zlashtirish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalar ilgari surilgan. Kelgusida quyidagi yo'nalishlar dolzarb bo'lib qoladi: -energiya tejankor va ekologik toza qurilish materiallarini ishlab chiqarish; -aerogel va 3D-printer asosidagi yangi mahsulotlarni amaliyotga tatbiq etish; - quyosh energiyasi integratsiyalangan panellarni mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish; -import o'rnini bosuvchi mahsulotlar turini kengaytirish. - nanotexnologiyalarni ushbu sohaga tadbiq qilish; Bu jarayonlar aholining arzon va sifatli uy-joylarga bo'lgan talabini qondirish, shuningdek, mamlakatning "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga o'tishini tezlashtiradi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Mahalliy ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi, eksport geografiyasi kengaydi va import hajmi kamaydi. Kelajakda ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish uchun quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Innovatsion va energiya samarador materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish.
2. Jahon tajribasidan foydalanib, "yashil qurilish" tamoyillarini joriy etish.

3. Mahalliy xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanish.
4. Eksport salohiyatini oshirish uchun yangi bozorlarni egallash.
5. Xususiy va xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb qilish.

Mazkur chora-tadbirlar orqali qurilish materiallari sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.A. Samig'ov "Qurilish materiallari va buyumlari" darslik. Toshkent Cho'lpon 2013-yil.
2. A.I. Adilxodjaev, F.F. Karimova, U.J. Turgunbaev "Qurilish materiallari" darslik, Toshkent: -2017-yil.

MAHALLIY TURAR-JOY BINOLARIDA YANGI QURILISH MATERIALLARI YORDAMIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Yuldasheva Kumushbibibi Azamat qizi.,
Magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
yuldashevakumushbibibi49@gmail.com.,*

Annotatsiya

Mazkur maqolada mahalliy turar-joy binolarida energiya samaradorligini oshirishda zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Yangi texnologik materiallarning issiqlik o'tkazuvchanligi, ekologik xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalarda turar-joy binolari uchun energiya tejamkorlikni oshiruvchi innovatsion qurilish yechimlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

energiya samaradorligi, turar-joy binolari, qurilish materiallari, issiqlik izolatsiyasi, innovatsiya.

Kirish:

Bugungi kunda energiya resurslaridan oqilona foydalanish global miqyosda dolzarb muammo hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston sharoitida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida energiya samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor